



XALQ DEPUTATLARI DANG'ARA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 17-dekabr

VII-2-011-11-155-K/24

Dang'ara tumani

Xalq deputatlari Dang'ara tuman Kengashi kotibiyati to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida

“O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 20-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashining 2024-yil 21-oktabrdagi “Xalq deputatlari viloyat (tuman, shahar) Kengashi kotibiyati to‘g‘risida namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi KQ-837-IV- son Qaroriga muvofiq xalq deputatlari Dang’ara tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1. Xalq deputatlari Dang’ara tuman Kengashi kotibiyati to‘g‘risida nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Ushbu Qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Dang’ara tumani Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.
3. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



TOJIXAKIMOV
SHUXRATJON
NURMUXAMMADOVICH

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani
Kengashining
2024-yil 17-dekabrdagi
VII-2-011-11-155-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Dang‘ara tuman Kengashi kotibiyati to‘g‘risida

NIZOM

Umumiq qoidalar

1. Ushbu Nizom xalq deputatlari Dang‘ara tuman Kengashi kotibiyati (bundan buyon matnda Kotibiyat deb yuritiladi) faoliyatini tashkil etish tartibini, uning asosiy vazifalari va funksiyalarini, Kotibiyat tizimida kadrlar bilan ishlash qoidalarini belgilaydi.

2. Kotibiyat xalq deputatlari Dang‘ara tuman Kengashi (bundan buyon matnda Kengash deb yuritiladi), uning doimiy komissiyalari va deputatlari faoliyatiga tashkiliy, axborot-tahliliy, texnikaviy va boshqa jihatlardan xizmat ko‘rsatilishini ta’minlaydi.

3. Kotibiyat o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, Kengashning qarorlariga va ushbu Nizomga amal qiladi.

4. Kotibiyat boshqa davlat organlaridan mustaqil bo‘lib, bevosita Kengashga bo‘ysunadi.

5. Kotibiyat o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining hududiy bo‘linmalarini, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda yuritadi.

6. Kotibiyat yuridik shaxs bo‘lib, uning faoliyati tegishli mahalliy byudjet hisobidan moliyalashtiriladi.

Kotibiyatning tuzilmasi, nizomi, shtatlar jadvali, uning xodimlari mehnatiga haq to‘lash miqdori va moddiy-texnika ta’minoti, shuningdek ularni saqlash xarajatlari Kengash tomonidan tasdiqlanadi.

7. Kotibiyat O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi va o‘z nomi tushirilgan muhriga hamda blankalariga ega bo‘ladi.

II. Kotibiyat faoliyatini tashkil etish

8. Kotibiyat o‘z faoliyatini Kengash raisi hamda Kotibiyat mudiri rahbarligida amalga oshiradi.

9. Kotibiyat xodimlarining mehnatga oid munosabatlari Kengashning vakolat muddatiga bog‘liq bo‘lmaydi, bundan Kotibiyat mudiri mustasno.

10. Kotibiyat mudiri Kengash deputatlari orasidan uning vakolati muddatiga Kengash raisi tomonidan tayinlanadi va doimiy asosda faoliyat yuritadi.

Kotibiyat bosh mutaxassislari (keyingi o‘rinlarda kotibiyat mutaxassislari) Kotibiyat mudirining tavsiyasiga asosan Kengash raisi tomonidan lavozimiga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

11. Kotibiyat mudiri bir vaqtning o‘zida haq to‘lanadigan boshqa turdag'i faoliyat bilan shug‘ullanishi mumkin emas (ilmiy, ijodiy va pedagogik faoliyat bundan mustasno).

12. Kotibiyat mudiri o‘z vazifasini bajara olmaydigan hollarda uning vazifasini vaqtincha bajarish kelishuv asosida Kengash raisi tomonidan Kengash deputatlaridan biriga yuklanadi.

13. Kotibiyatda hujjatlar bilan ishslash Kengash qarori bilan tasdiqlanadigan yo‘riqnomasi asosida amalga oshiriladi.

14. Kotibiyat mudiri:

Kotibiyat faoliyatiga rahbarlik qiladi, Kotibiyat mutaxassislari ishini tashkil etadi;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Senatining qo‘mitalari hamda Senat devonining bo‘linmalari bilan hamkorlikda ishlaydi;

Kengash ish rejasi asosida sessiya muhokamasiga kiritiladigan masalalar bo‘yicha tegishli hujjat loyihalarni puxta tayyorlanishini tashkil etadi;

Kengash qarorlari loyihalarni kelishish jarayonini tashkil etadi;

tegishli hujjatlar qabul qilingandan keyin ularning bajarilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta’minlaydi;

Kotibiyat mutaxassislari o‘rtasida vazifalar taqsimotini ishlab chiqadi hamda tasdiqlash uchun Kengash raisiga taqdim etadi;

Kengashda ish yuritish belgilangan tartibda olib borilishini ta’minlaydi;

Kotibiyat xodimlari malakasini oshirish, ularni rag‘batlantirish yoki intizomiy chora ko‘rish bo‘yicha Kengash raisiga takliflar kiritadi;

Kengash sessiyasi va uning doimiy komissiyalari majlislarini tashkillashtiradi;

Kotibiyatning moddiy-ta’minotiga oid masalalar bo‘yicha Kotibiyat nomidan qonunchilikda belgilangan tartibda shartnomalar tuzadi;

Kotibiyat mutaxassislariga xizmat guvohnomalari berilishini hamda lavozimdan ozod qilingandan keyin qaytarib olinishini ta’minlaydi;

Kotibiyat zimmasiga yuklatilgan vazifalar o‘z vaqtida va sifatli ijro etilishiga shaxsan javob beradi;

Kengash raisi topshiriqlariga muvofiq boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

III. Kotibiyatning asosiy vazifalari va funksiyalari

15. Kotibiyatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Kengash faoliyatini tashkiliy, huquqiy, axborot-tahliliy va boshqa jihatlardan ta’minlash;

Kengash va uning doimiy komissiyalarining nazorat sohasidagi vakolatlarini samarali amalga oshirishiga ko‘maklashish;

mahalliy ijroiya hokimiyyati, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining hududiy bo‘linmalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa idoralar rahbarlari va mansabdor shaxslarining hisobotlari (axborotlari) eshituvini tashkil qilishga ko‘maklashish;

Kengash faoliyatiga doir hujjatlarning «Kengash.gov.uz» elektron tizimi orqali yuritilishini ta’minlash;

Kengash va uning doimiy komissiyalarining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati hamda uning qo‘mitalari (komissiyalari) bilan hamkorligini tashkil etish;

Kengash faoliyatining ommaviy axborot vositalarida yoritilishiga ko‘maklashish.

16. Kotibiyat o‘ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

1) Kengash faoliyatini tashkiliy, huquqiy, axborot-tahliliy va boshqa jihatlardan ta’minlash yo’nalishida:

Kengash ish rejasi loyihasi ishlab chiqilishini hamda bildirilgan takliflar asosida takomiliga yetkazilishini ta’minlaydi;

Kengash ish rejasi hamda kelib tushgan takliflar asosida sessiya kun tartibi loyihasini shakllantiradi hamda ko‘rib chiqish uchun Kengash raisiga kiritadi;

Kengash va uning doimiy komissiyalari muhokamasiga kiritiladigan masalalar yuzasidan tegishli materiallar tayyorlanishiga ko‘maklashadi;

Kengash sessiyasi, doimiy komissiyalar majlislarini o‘tkazish bilan bog‘liq tashkiliy masalalarni hal etadi, tegishli materiallarning deputatlarga yetkazilishini ta’minlaydi;

Kengash deputatlariga o‘z vakolatlarini amalga oshirishda ko‘maklashadi hamda ularni tegishli huquqiy-axborot materiallari bilan ta’minlaydi;

kelib tushgan hujjatlar asosida axborot, tahliliy va boshqa materiallarni tayyorlaydi;

Kengash raisi topshirig‘iga binoan Kengash vakolatiga taalluqli huquqiy masalalar yuzasidan xulosalar tayyorlanishini tashkil etadi;

Kengash va uning doimiy komissiyalari qarorlari loyihalarining qonunchilikka hamda yuridik-texnik talablarga muvofiqligini ko‘rib chiqadi, mazkur hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

doimiy komissiyalarning faoliyat yo’nalishi doirasida hududiy dasturlar loyihalarining qonunchilikka hamda yuridik-texnik talablarga muvofiqligini ko‘rib chiqishiga, mazkur hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlashiga yordam ko‘rsatadi;

doimiy komissiyalar tomonidan mahalliy byudjet loyihasi yuzasidan xulosalar hamda takliflar tayyorlanishiga ko‘maklashadi;

Kengashning normativ-huquqiy tusga ega qarorlari loyihalari sessiya kun tartibiga kiritilishidan oldin tegishli adliya organida huquqiy ekspertizadan o‘tkazilishini tashkil etadi;

Kengashga kelib tushgan hamda tegishli idora va tashkilotlarga yuboriladigan xat-hujjatlarning rasmiylashtirilishini ta’minlaydi;

veb-saytlarni, rasmiy axborot manbalarini, ijtimoiy tarmoqlarni muntazam kuzatib boradi va zarur ma’lumotlarni, xususan, qonunchilikdagi yangiliklarni Kengash deputatlariga taqdim etadi;

xizmat doirasida foydalanish uchun mahalliy ijroiya hokimiyati organlaridan tegishli axborotlarni so‘rab oladi;

Kengash va uning doimiy komissiyalari tomonidan seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarning tashkil etilishi va o‘tkazilishiga ko‘maklashadi;

Kengash doimiy komissiyalari faoliyatining yo’nalishidan kelib chiqqan holda hududdagi idora, tashkilot va muassasalar bilan hamkorligini ta’minlashga ko‘maklashadi;

Kengash raisi va deputatlar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarni qabul qilish, ularning murojaatlarini ko‘rib chiqish, sayyor qabullar o‘tkazish bilan bog‘liq ishlarni tashkil etadi;

Kengash faoliyati to‘g‘risida har oy yakuni bo‘yicha tahliliy axborot tayyorlaydi.

2) Kengash va uning doimiy komissiyalarining nazorat sohasidagi vakolatlarini samarali amalga oshirishga ko‘maklashish yo‘nalishida:

hududning xavfsizligiga, barqaror rivojlanish asoslariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan, inson huquqlari va erkinliklariga, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soladigan faktlar hamda voqealarni o‘rganish maqsadida Kengash tekshiruvi o‘tkazilishini tashkil etishga ko‘maklashadi;

hududda joylashgan davlat organlari va tashkilotlarining mansabdon shaxslariga qonunlarning, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining ijrosi masalalari hamda ularning vakolatlariga kiradigan boshqa muhim masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon etish talabi bilan yuboriladigan Kengash so‘rovi loyihasi tayyorlanishiga ko‘maklashadi;

Kengash ish rejasi loyihasi ishlab chiqilishida hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir chora-tadbirlarning o‘rganilishi masalalari kiritilishini tashkil etadi;

doimiy komissiyalar tomonidan qonun hujjatlari va Kengash qarorlari ijrosi, huquqni qo‘llash amaliyoti joylarga chiqqan holda o‘rganilishiga ko‘maklashadi;

hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir dasturlar, chora-tadbirlar rejalar, «yo‘l xaritalari» ijrosi o‘rganilishini hamda natijalari bo‘yicha tahliliy ma’lumot tayyorlanishini tashkil etadi;

Kengash tavsiyasiga ko‘ra doimiy komissiyalar tomonidan byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi va ulardan samarali foydalanilishi holati o‘rganilishini tashkil etadi;

o‘rganish hamda muhokama qilish jarayoni sifatli amalga oshirilishi uchun sohaga doir masalalar bo‘yicha mutaxassislar va ekspertlarning jalb etilishini tashkil etadi;

mahallalardagi muammolarni hal etishda Kengash deputatlari va «Mahalla yettiligi»ning o‘zaro hamkorligini ta’minlashga ko‘maklashadi, muammoli masalalarning o‘rganilishini tashkil etadi;

mahallalardagi muammoli masalalar bo‘yicha Kengash deputatlari tomonidan kiritilgan takliflarni umumlashtiradi hamda sessiya muhokamasiga kiritish uchun Kengash raisiga taqdim etadi;

Kengash deputatlari tomonidan kiritilgan hudud miqyosida hal etilmaydigan muammoli masalalar hamda takliflarning yuqori turuvchi Kengash kiritilishini tashkil etadi;

nazorat ob’ekti sifatida o‘rganilayotgan masalaga oid ekspertlar xulosasini, aholi va jamoatchilik fikrini umumlashtiradi, kelib tushgan murojaatlar, taklif-mulohazalarni yo‘nalishi bo‘yicha tegishli doimiy komissiyalarga taqdim etadi;

Kengash deputatlari tomonidan yuborilgan deputat so‘rovlarini va ularning natijalarini monitoring qilib boradi;

Kengash raisining topshiriqlari ijrosi ustidan nazorat olib boradi;

Kengash doimiy komissiyalariga nazorat-tahlil ishlarini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy, uslubiy, axborot va maslahat yo‘sindagi xizmat ko‘rsatilishini ta’minlaydi;

Kengashga kelib tushgan yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari tegishli davlat organlari va boshqa idoralar tomonidan ko'rib chiqilishini nazorat qilishga ko'maklashadi;

hududiy dasturlarning, Kengash qarorlarining loyihalarini ishlab chiqish masalalari yuzasidan, shuningdek ularning ijrosi ustidan nazorat borasida nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikni tashkillashtiradi.

3) Mahalliy ijroiya hokimiyati, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hududiy bo'linmalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa idoralar rahbarlari va mansabdor shaxslarining hisobotlari (axborotlari) eshituvini tashkil qilishga ko'maklashish yo'nalishida:

Kengash ish rejasi loyihasiga mahalliy ijroiya hokimiyati, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hududiy bo'linmalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa idoralar rahbarlari va mansabdor shaxslarining qonun va qonunchilikda belgilangan muddatlarda hisobotlari (axborotlari) eshitilishi masalalari kiritilishini tashkil etadi;

mahalliy ijroiya hokimiyati, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hududiy bo'linmalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa idoralar rahbarlarini navbatdagi sessiyada ularning hisobotlari (axborotlari) eshitilishi haqida oldindan xabardor qiladi;

hududdagi davlat organlari va tashkilotlaridan, mansabdor shaxslardan ma'lumotlar va ekspert xulosalari hamda boshqa ma'lumotlarni oladi, tahlil etadi, doimiy komissiyalarga taqdim etadi;

mahalliy ijroiya hokimiyati, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hududiy bo'linmalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa idoralar rahbarlari tomonidan taqdim etilgan hisobotlar (axborotlar)ni Kengashning tegishli doimiy komissiyalariga taqdim etadi;

mahalliy ijroiya hokimiyati, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hududiy bo'linmalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa idoralar rahbarlarining hisobotlari (axborotlari) dastlab Kengashning tegishli doimiy komissiyalarida ko'rib chiqilishiga ko'maklashadi;

mahalliy ijroiya hokimiyati, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hududiy bo'linmalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa idoralar rahbarlarining hisobotlari (axborotlari)ga doir materiallarning Kengash deputatlariga yetkazilishini ta'minlaydi;

mahalliy ijroiya hokimiyati, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining hududiy bo'linmalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa idoralar rahbarlarining hisobotlari (axborotlari)ni eshitish bilan bog'liq boshqa masalalarni tashkil etadi.

4) Kengash faoliyatiga doir hujjatlarning «Kengash.gov.uz» elektron tizimi orqali amalga oshirilishini ta'minlash yo'nalishida:

«Kengash.gov.uz» elektron tizimini Kengash faoliyatiga to'liq tatbiq etish choralarini ko'radi;

Kengash qarorlari loyihalarini «Kengash.gov.uz» elektron tizimi orqali kelishish jarayonini tashkil etadi;

Kengash qarorlarining «Kengash.gov.uz» elektron tizimi orqali rasmiylashtirilishini ta'minlaydi;

deputat so‘rovlari «Kengash.gov.uz» elektron tizimi orqali yuborishda Kengash deputatlariga ko‘maklashadi;

jismoniy va yuridik shaxslarning «Kengash.gov.uz» elektron tizimi orqali yuborilgan murojaatlari o‘rnatalgan tartibda ko‘rib chiqilishini tashkil etadi;

Kengash faoliyatiga «Ijro.gov.uz» ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi tatbiq etilishini hamda samarali ishlashini ta’minlaydi;

Kengash faoliyatiga doir statistik ma’lumotlarni shakllantiradi.

5) Kengash va uning doimiy komissiyalarining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati hamda uning qo‘mitalari bilan hamkorligini tashkil etish yo‘nalishida:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qo‘mitalari, shuningdek hududdan saylangan senatorlar bilan yaqin hamkorlikda faoliyat olib boradi;

hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlar ijrosi, joylardagi eng muhim va dolzarb masalalarni muhokama etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi hamda Kengashning qo‘shma majlisi o‘tkazilishi bilan bog‘liq tashkiliy-texnik masalalarni hal etadi;

qonun va qonunosti hujjatlari ijrosining borishi yuzasidan joylarda Oliy Majlis Senati qo‘mitalarining sayyor yig‘ilishlari o‘tkazilishiga ko‘maklashadi;

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Oliy Majlis Senatiga taqdim etilgan qonunlarni Senat qo‘mitalari tomonidan muhokama qilish jarayonida Kengashning tegishli doimiy komissiyalari a’zolari ishtirokini ta’minlashga ko‘maklashadi;

Kengash deputatlari, «Mahalla yettiligi» tomonidan ko‘tarilgan respublika darajasidagi muammoli masalalarning Oliy Majlis Senatiga kiritilishini tashkil etadi;

Oliy Majlis Senati qo‘mitalari va Senat devoni bo‘linmalari bilan birgalikda Kengash deputatlari hamda kotibiyat xodimlarining bilim va malakalarini oshirishga qaratilgan o‘quvlar, seminarlar, davra suhbatlari, o‘zaro tajriba almashuvlar tashkil etilishini ta’minlaydi;

Kengash faoliyatiga oid qonun va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflarni Oliy Majlis Senatiga kiritib boradi.

6) Kengash faoliyatining ommaviy axborot vositalarida yoritilishiga ko‘maklashish yo‘nalishida:

Kengash faoliyatiga oid tadbirlar to‘g‘risidagi xabarlar tayyorlanishini va ommaviy axborot vositalarida chop etilishini, Kengashning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini tashkil etadi;

Kengash sessiyalarini onlayn yoritish bo‘yicha tegishli choralarini amalga oshiradi;

Kengash faoliyatini yoritib borish bo‘yicha Media-reja ishlab chiqadi hamda ijrosini ta’minlaydi;

Kengash va uning doimiy komissiyalari tomonidan o‘tkaziladigan tadbirlarga ommaviy axborot vositalari vakillarini jalb qilish choralarini ko‘radi;

Kengash deputatlari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarning, Kengash qarorlarining mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushuntirish bo‘yicha targ‘ibot tadbirlari o‘tkazilishini tashkil etadi;

Kengash va deputatlar faoliyatining ommaviy axborot vositalari, Internet jahon axborot tarmog‘i, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritilishiga ko‘maklashadi.

17. Kotibiyat Kengash va uning raisi topshiriqlariga muvofiq boshqa vazifalar va funksiyalarini ham amalga oshiradi.

IV. Kotibiyat tizimida kadrlar bilan ishlash qoidalari

18. Kotibiyat mutaxassisi lavozimi uchun nomzodlarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

oliy ma’lumotli bo‘lishi;

mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatiga doir qonun hujjatlaridan xabardor bo‘lishi;

hujjatlar tayyorlash, ish yuritish tizimi, ijro intizomi bo‘yicha bilim va kasbiy tajribaga ega bo‘lishi;

kompyuter texnologiyalaridan mukammal foydalana olishi;

odob-axloq qoidalariga qat’iy rioya etishi.

19. Kotibiyat mutaxassisi lavozimiga nomzodlarni tanlash, suhbatdan o‘tkazish hamda tavsiya etish Kotibiyat mudiri tomonidan amalga oshiriladi.

20. Nomzodlar Kotibiyat mutaxassislarining amaldagi tarkibi, kadrlar zaxirasiga kiritilgan nomzodlar, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, davlat va jamoat tashkilotlari, muassasalar xodimlari orasidan tanlanadi.

21. Kotibiyat mudiri nomzodlar bilan (bevosita yoki onlayn) suhbat o‘tkazadi. Suhbat natijasiga ko‘ra munosib deb topilgan nomzod bo‘yicha tavsifnomा va ma’lumotnomा (ob’ektivka) tayyorlanib, Kengash raisiga tavsiya etiladi.

Nomzod Kengash raisi tomonidan ma’qullangandan keyin qonunchilikda belgilangan tartib tuziladigan mehnat shartnomasi asosida uch oy sinov muddati bilan ishga qabul qilinadi.

22. Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyatining sinov muddati bilan ishga qabul qilingan mutaxassisi uch oy muddat oralig‘ida xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyatida amaliyot o‘taydi.

Bunda, sinov muddati bilan ishga qabul qilingan mutaxassisning amaliyot o‘tash vaqtி Kotibiyat mudiri tomonidan oldindan kelishiladi.

23. Kotibiyat xodimlarining mehnat munosabatlariga doir masalalar (ishga qabul qilish, lavozimdan ozod etish, rag‘batlantirish, ustama haqi tayinlash, intizomiy chora ko‘rish, xizmat safari, mehnat ta’tili) Kengash raisi farmoyishiga asosan amalga oshiriladi.

24. Kotibiyat mutaxassisi lavozimi uchun nomzodlarni tanlash, Kotibiyat mutaxassislarining salohiyatidan unumli foydalanish, kasbiy ko‘nikmalarini oshirib borish mazkur Nizomga rioya etgan holda amalga oshirilishi yuzasidan mas’uliyat Kotibiyat mudiri zimmasiga yuklatiladi.

V. Yakunlovchi qoidalari

25. Mazkur nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar Kengash qarori bilan kiritiladi.

26. Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi takliflar Kengash doimiy komissiyalari, partiya guruhlari, deputatlar tomonidan kiritilishi mumkin.